

TASDIQLAYMAN

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK

direktori



O.N. Mirzayev

2022 yil

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK
tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar tariflariga
1-son ILOVA

“Texnik topshiriq ekspertizasi” xizmatini ko‘rsatish reglamenti

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

1.1. Xizmat nomi.

Davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari va resurslarini yaratish yoki modernizatsiya qilish bo‘yicha texnik topshiriqlar loyihalarini (davlat sirlariga kiritilgan axborotni qayta ishlash uchun mo‘ljallangan axborot tizimlarining texnik topshiriq hujjatlari bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish.

1.2. Xizmat natijasi.

Axborot tizimlarini texnik topshiriq talablariga muvofiqligi bo‘yicha o‘tkazilgan ekspertiza yakunlari bo‘yicha arizachiga xulosa taqdim etish.

1.3. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot.

“Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda - Markaz).

Ariza na‘munasini (shaklini):

- Markazning rasmiy veb-sayti www.csec.uz orqali;
- Markazning amaldagi manzili orqali: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko‘chasi, 20 uy.

1.4. Huquqiy asoslar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 sentabrdagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4751-son qarori.

1.5. Xizmat ko'rsatish uchun ariza yuborish muddati:

Kerak bo'lganda.

1.6. Xizmat ko'rsatish muddati:

Ko'rsatiladigan xizmatlarning bajarish muddati shartnomaga muvofiq belgilanadi.

1.7. Xizmat ko'rsatishni tasdiqlash muddati:

Xizmat ko'rsatish uchun so'rov olingan paytdan e'tiboran 10 ish kuni ichida, tegishli xabarnoma yuborgan holda.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarni xabardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi.

Murojaat qilgan har qanday shaxsga quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi kafolatlanadi:

- xizmat ko'rsatuvchi organning joylashgan manzili, ish jadvali, tashrif buyuruvchilarni qabul qilish tartibi (telefon orqali oldindan ro'yxatdan o'tish, qabul qilish murojaat kuni, jonli navbat va boshqalar);

- xizmatni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati;

- to'ldirilishi zarur bo'lgan namuna (shakl)larni olish usuli va tartibi;

- to'lov tartibi;

- xizmat ko'rsatish tartibi;

- ko'rsatiladigan xizmatni bajarish muddati;

- xizmat reglamentining mavjudligi va reglament bilan tanishish usuli.

2.2. Batafsil ma'lumot.

Taqdim etilayotgan xizmatlar va ular to'g'risida standart ma'lumotlarni quyidagilarda olish mumkin:

- Markazning rasmiy veb-saytida www.csec.uz;

- Markazning amaldagi manzilida: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 20 uy;

- telefon orqali: +998 95 194-78-75.

2.3. Ariza bo'yicha xabar berish.

Shaxsan: ariza beruvchilar ish kunlari soat 9:00 dan 18:00 gacha xizmat ko'rsatishning har qanday masalalari (to'lov tafsilotlari, kerakli hujjatlar ro'yxati va boshqalar) bo'yicha murojaat qilishlari mumkin.

Telefon orqali: ariza beruvchi ish kunlari soat 9:00 dan 18:00 gacha xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha har qanday og'zaki maslahatlarni (maxfiy ma'lumotlarni

taqdim etish bundan mustasno) olish bo'yicha murojaat qilishlari mumkin (misol uchun, to'lovni amalga oshirish uchun Markazning rekvizitlari).

2.4. Foydalaniladigan hujjatlarning na'munalari (shakllari):

- xizmat nomini ko'rsatgan holda Markaz direktori nomiga rasmiy ariza xati;
- xizmat ko'rsatish to'g'risida tomonlar o'rtasida tuziluvchi shartnoma.

3. Xizmat

3.1. Ish vaqti.

Ish vaqti soat 9:00 dan 18:00 gacha.

Tushlik soat 13:00 dan 14:00 gacha.

Dam olish kunlari: shanba va yakshanba kunlari.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Xizmat ko'rsatish uchun zarur hujjatlar:

- belgilangan shakldagi ariza va qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirilgan jadval;
- texnik topshiriq loyihasi, uning barcha ilovalari hamda ularning nusxalari bilan elektron shaklda Markazning rasmiy pochta manziliga yuboriladi, (qog'oz ko'rinishda esa Markaz manziliga taqdim etiladi);
- texnik topshiriq loyihasiga tushuntirish xati.

4.2. Xizmat uchun to'lov

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar uchun xizmat pullik asosda ko'rsatiladi. Xizmat narxi Markaz tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar tariflari preyskurantiga muvofiq ko'rsatiladi.

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari

Xizmat ushbu Reglamentning 1-ilovasida keltirilgan ariza asosida taqdim etiladi.

Kelib tushgan ariza 3 ish kuni ichida ro'yxatdan o'tkaziladi, shuningdek hujjatlar to'plamining to'liqligi tekshiriladi.

Hujjatlar to'plamini tekshirish natijalari yakuniga ko'ra quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- texnik topshiriq loyihasini dastlabki o'rganish;
- texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha qaror to'g'risida arizachini xabardor qilish hamda ijrochi va arizachi o'rtasida shartnoma tuzish ;
- texnik topshiriq loyihasini axborot va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza yakuni bo'yicha taklif va tavsiyalarni shakllantirish (mavjud bo'lganda);

- texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o'tkazish yakuni bo'yicha ekspert xulosasini tayyorlash, rasmiylashtirish va arizachiga yuborish.

Zarurat bo'lganda, Markaz Buyurtmachi tomonidan joriy etilayotgan ba'zi jihatlari yoki texnologiyani tavsiflovchi boshqa hujjatlarni yoki u muhim yohud axborot tizimi texnik topshiriqning ajralmas qismi deb hisoblagan hujjatlarni taqdim etish bo'yicha Arizachiga murojaat yuboradi.

Ekspertizani o'tkazishning dastlabki muddatlari ariza kelib tushgandan so'ng belgilanadi va ekspertizadan o'tkazishning narxi va muddatlari – uning xajmi, murakkabligi va axborot texnologiyalarining alohida yo'nalishlari bo'yicha ekspertizadan o'tkazish uchun jalb qilinadigan mutaxassislarning sonidan kelib chiqib aniqlanadi.

Arizachi va Markaz mutaxassislari o'rtasida aloqani ta'minlash, shuningdek texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o'tkazish davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mazkur ekspertiza expert.csec.uz manzilida joylashgan "Ekspertiza" axborot tizimi orqali amalga oshiriladi ("Ekspertiza" axborot tizimiga kirish huquqi Arizachiga Markazning rasmiy xati orqali ekspertiza o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng taqdim etiladi).

Keyinchalik shartnomaning jami summasini aniqlash uchun ushbu axborot tizimi texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o'tkazish uchun Markaz tomonidan sarflangan aniq vaqtni hisobga olishni amalga oshiradi.

Ekspertiza davomida Markaz mutaxassislari tomonidan texnik topshiriqning quyidagi jihatlari o'rganiladi:

- taqdim etilayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiqligi;

- xalqaro talablar va tendensiyalarga javob beradigan zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalarni loyihalarda qo'llanishi;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlanishi;

- axborot, kompyuter va tarmoq texnologiyalarini to'g'ri tanlanganligi.

Ekspertiza yakuni bo'yicha, Markaz tomonidan texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o'tkazish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ekspert xulosasini tayyorlaydi.

Xizmat ko'rsatish arizachiga ish natijalarini qabul qilish va topshirish dalolatnomasini imzolash bilan yakunlanadi.

Xizmatni taqdim etish bosqichlari ushbu Reglamentning 2-ilovasida sxema shaklida keltirib o'tilgan.

4.4. Xizmat ko'rsatish jarayonida idoralararo hamkorlik

Zarur hollarda, ishning tarkibi va xususiyatidan kelib chiqib, boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va idoralar bilan o'zaro hamkorlik qilish mumkin.

4.5. Rad etish asoslari

Xizmat ko'rsatishni rad etishning asoslari quyidagilardan iborat:

- xizmatni olish uchun murojaat qilgan shaxsning uni olish huquqi yo‘qligi;
- hujjatlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi (ro‘yxatning to‘liq emasligi, noto‘g‘ri to‘ldirilganligi);
- taqdim etilgan hujjatlarda haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlarning mavjudligi.

5. Sifatni ta’minlash

5.1. Sifatsiz xizmat ustidan shikoyat qilish

Ariza beruvchi olingan xizmat natijalariga rozi bo‘lmaslik sabablarini ko‘rsatgan holda rahbar nomiga rasmiy xat bilan murojaat qilishi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o‘tkazish uchun ariza shakli

(Tashkilotning rasmiy blankasida)

Texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o‘tkazish uchun

ARIZA

1. _____
(Tashkilot nomi)

Sizdan _____
(texnik topshiriq nomi)

loyihasini axborot va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazishingizni so‘raydi.

2. Ariza beruvchi:

- ekspertiza o‘tkazish tartibining barcha shartlari va talablarini bajarish;
- texnik jihatdan tartibga solish bo‘yicha amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq hujjatlar va materiallarning to‘liq to‘plamini (o‘zbek va/yoki rus tillarida) taqdim etish;
- ekspertiza natijalari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, uni o‘tkazish uchun xizmat haqini to‘lash majburiyatlarini oladi.

3. Texnik topshiriq loyihasi elektron shaklda info@csec.uz elektron pochta manziliga yuborildi.

4. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- texnik topshiriq loyihasi;
- loyiha bo‘yicha tushuntirish xati;
- qo‘shimcha ma’lumotlar jadvali;
- _____

Tashkilot raxbari

(imzo)

(F.I.O.)

Qo'shimcha ma'lumotlar jadvali

1. Umumiy ma'lumotlar

| | |
|----------------------------|--|
| 1.2. Buyurtmachi | |
| Tashkilotning to'liq nomi: | |
| | |

| | |
|----------------------------|--|
| 1.3. Ishlab chiquvchi | |
| Tashkilotning to'liq nomi: | |
| | |

2. Texnik topshiriq loyihasi bo'yicha ma'lumot

| | |
|-------------------------|--|
| 2.1. Texnik topshiriq | |
| Hujjatning to'liq nomi: | |
| Hujjat versiyasi: | |
| Sahifalar soni: | |

| | |
|--|--|
| 2.2. Loyiha turi | |
| <input type="checkbox"/> - Axborot tizimini yaratish | <input type="checkbox"/> - Axborot tizimini modernizatsiyalash |

3. Texnik topshiriq loyihasining vazifasi

| | |
|--|--|
| 3.1. Axborot tizimi to'g'risida ma'lumot | |
| ATning to'liq nomi: | |
| ATning qisqacha nomi: | |
| AT versiyasi: | |
| | |

| | |
|--|------------------------------------|
| 3.2. Axborot tizimi kompleksining turi | |
| <input type="checkbox"/> - Dasturiy | <input type="checkbox"/> - Apparat |

| | |
|--|--|
| 3.3. Axborot tizimi quyitizimlarining turi | |
| <input type="checkbox"/> - Kompyuter qurilmalari | <input type="checkbox"/> - Periferik qurilmalar |
| <input type="checkbox"/> - Server qurilmalari | <input type="checkbox"/> - Ma'lumotlarni saqlash tizimi |
| <input type="checkbox"/> - Tarmoq qurilmalari | <input type="checkbox"/> - Xavfsizlik qurilmasi |
| <input type="checkbox"/> - Tizimli DT | <input type="checkbox"/> - Amaliy DT |
| <input type="checkbox"/> - Ma'lumotlar bazasi | <input type="checkbox"/> - Xavfsizlik uchun DT |
| <input type="checkbox"/> - Virtuallashtirish tizimi | <input type="checkbox"/> - Bulutli hisoblash |
| <input type="checkbox"/> - Pochta serveri | <input type="checkbox"/> - SIP/VoIP |
| <input type="checkbox"/> - Internet - shlyuz | <input type="checkbox"/> - VPN |
| <input type="checkbox"/> - Domen kontrolleri | <input type="checkbox"/> - Korporativ portal |
| <input type="checkbox"/> - Resurslarni boshqarish tizimi | <input type="checkbox"/> - Loyihalarni boshqarish tizimi |
| <input type="checkbox"/> - Mijozlar bilan ishlash tizimi | <input type="checkbox"/> - Veb-sayt/Veb ilova |

| | |
|--|---|
| 3.4. Axborot tizimini amalga oshirish jarayonlari | |
| <input type="checkbox"/> - Qurilmalarni sotib olish | <input type="checkbox"/> - DT sotib olish |
| <input type="checkbox"/> - Xizmatlarni sotib olish | <input type="checkbox"/> - DT ishlab chiqish |
| <input type="checkbox"/> - Axborot infratuzilmasini qurish | <input type="checkbox"/> - Tarmoq infratuzilmasini qurish |

“Texnik topshiriq ekspertizasi”
xizmatini ko‘rsatish reglamentiga
2 - ILOVA

**Axborot tizimi va/yoki resursini yaratish/modernizatsiyalash
uchun texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o‘tkazish sxemasi**

| Bosqichlar | Qatnashchi | Tadbirlar | Ijro muddatlari |
|-------------------|-------------------|---|--|
| 1 bosqich | Arizachi | Markazga ariza yuborish (tegishli hujjatlar to‘plami bilan) | |
| 2 bosqich | Markaz | 1. Kelib tushgan arizani ro‘yhatga olish. 2. Hujjatlar to‘plami to‘liqligini tekshirish. | 10 ish kuni ichida |
| 3 bosqich | Markaz | Keyinchalik shartnoma tuzish uchun texnik topshiriq loyihasini dastlabki o‘rganish va baholash | Texnik topshiriq loyihasining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda |
| 4 bosqich | Markaz | Texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha qaror to‘g‘risida va shartnoma tuzish to‘g‘risida arizachini xabardor qilish | Dastlabki o‘rganish va baholash yakuniga ko‘ra |
| 5 bosqich | Markaz | Texnik topshiriq loyihasini ekspertizadan o‘tkazish ishlarini amalga oshirish va mazkur texnik topshiriq loyihasi yuzasidan taklif va tavsiyalarni tayyorlash | Shartnomaga muvofiq |
| 6 bosqich | Markaz | Ekspert xulosasini tayyorlash, rasmiylashtirish va arizachiga yuborish | Ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng 3 kun ichida |